**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA'LIM,FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**"TASDIQLAYMAN"**
Chirchiq davlat pedagogika
universiteti rektori
O.I. Muxamedov
_______________
2024 yil "__" ________

# OILA PSIXOLOGIYASI
# O'QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 300 000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot |
| Ta'lim sohasi: | 310 000 – Ijtimoiy va xulq-atvorga mansub fanlar |
| Ta'lim yo'nalishi: | 60310300-Psixologiya |

**Chirchiq – 2024**

Scanned with CamScanner Сканировано с Cam

| Fan/modul kodi<br>OIPS1704 | | O'quv yili<br>2027-2028 | Semestr<br>7 | ECTS - Kreditlar<br>4 | |
|---|---|---|---|---|---|
| Fan/modul turi<br>Majburiy | | Ta'lim tili<br>O'zbek/rus | | Haftadagi dars soatlari<br>4 | |
| 1. | Fanning nomi | | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Oila psixologiyasi | | 60 | 60 | 120 |

2\.

**I. Fanning mazmuni.**

Fanni o'qitishdan maqsad –talabalarga oila psixologiyasi, oilaviy munosabatlar psixologiyasining predmeti va vazifalari. Oila psixologik tadqiqot birligi sifatida. "Oila" tushunchasining psixologik mazmuni. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi haqida tushuncha. Oila psixologiyasi fanining vazifalarining mohiyatini ochib berishga qaratilgan.

Fanning vazifasi –talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko`nikmalar, ijtimoiy hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

**II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. Oila psixologiyasi fan sifatida**

Oila psixologiyasining psixologik bilimlar tizimida tutgan o'rni. Oila psixologiyasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. Oila psixologiyasining tadqiqot metodlari.Shaxs rivojlanishida oilaning roli.

**2-mavzu. Oila va oilaviy munosabatlar borasidagi qarashlar**

Oila va nikoh institutining rivojlanish tarixi. Avestoda oila haqida bayon etilgan fikrlar. Islomda oilaviy munosabatlar masalalari. Mutafakkirlarining oila haqidagi qarashlari. (Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beniniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf xos Xojib, Alisher Navoiy va boshqa mutafakkirlaming oila va oilaviy munosabatlar xususidagi qarashlari). Yu.Toslaviyning "Xikmatlar xazinasi"dagi nasihatlari.

**3-mavzu. Oilaning ijtimoiy vazifalari, oilaviy rollar**

Oilaning ijtimoiy vazifalari va ularning o'zaro bogliqligi. Oila vazifalarining o'ziga xos xususiyatlari. Oila vazifalari klassifikatsiyasi. Oilaning iqtisodiy vazifalari. Oilaning xo'jalik ishlarini olib borishda, byudjet yuritishda, iste'molchilik faoliyatini tashkil etishdagi ishtiroki. Oilaning tarbiyaviy vazifalari.

**4-mavzu. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash**

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash zarurati. Oilaviy hayot tayyorlik jihatlari. Yoshlarda psixologik etuklikning hal qiluvchi ahamiyatga egaligi. Psixologik etuklikning shaxs xulqining turli yashash sharoitlariga

Scanned with CamScanner Сканировано с Cam

moslashuvchanligida ifodalanishi. Muloqot madaniyati oilaviy hayotga tayyorlikning bir yo'nalishi sifatida. Oilaviy hayot haqidagi tasavvurlar. Oila qurish haqidagi ustanovkalami shakllanishi.

**5-mavzu. Oilaning hayotiy sikli**

Oilaning hayotiy sikli. Oilaning hayotiy siklini davrlashtirish muammosi. Turli mualliflar nuqtayi - nazaridan oila bosqichlari tahlili. Yosh va etuk oilada oilaviy munosabatlarning rivojlanishidagi asosiy vazifalar. Oila dinamikasi hayotiy sikli doirasida yuzaga keluvchi asosiy oilaviy hodisalarning o'ziga xosligi. Oila rivojlanishining normativ inqirozlari.

**6-mavzu. Er-xotin juftligining shakllanishi**

Umr yo'ldosh tanlash nazariyalari. Oila qurishdan avvalgi davrning o'ziga xos xususiyatlari. Nikohning yuzaga kelishiga asos bo'ladigan omillar kompleksi.

Tanishish shartlari va sharoitlari. Nikoh yoshi xususiyatlari. Nikoh motivlari va er-xotin munosabatlari. Oila butun bir tizim sifatida. Munosabatlar xarakteri. Sevgi - er-xotin munosabatlarini qurishda asos sifatida. Muhabbat borasidagi nazariyalar. Sevgining xissiyot sifatida rivojlanishi. Muhabbat turlari, bosqichlari, belgilari.

**7-mavzu. Sharq va g'arb mutafakkirlarining sevgi - muhabbat va do'stlik hissi haqidagi qarashlari**

Yigit va qizlarda sevgi tuyg'usining ifodalanishidagi tafovutlar. Qizlar va yigitlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning turlari hamda farqlari. Muhabbat bosqichlarining namoyon bo'lishi. Muhabbat va inson mijozi o'rtasidagi bog'liqliklar. Muhabbat belgilari. Sevgining fasliy o'zgarishi. Rashk hissi.

**8-mavzu. Oilada shaxslararo munosabatlar va muloqot psixologiyasi**

Oilada muloqot. Muloqot jarayonida yuzaga keladigan to'siqlar. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. Er-xotin munosabatlarining o'ziga xosligi. Er-xotinlik munosabatlari.

**9-mavzu. Oilaviy nizolar, ajralish, uning sabab va oqibatlari**

Ajralish, uning sabab va oqibatlari. Ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi nizolar. Qaynona - kelin o'rtasidagi nizolar. Qaynona-kuyov orasidagi kelishmovchiliklar. Ajralish va uning oqibatlari. Ajralishlarga sabab bo'luvchi omillar.

**10-mavzu. Ota-ona – bola munosabatlari psixologiyasi**

"Ota - ona - bola" munosabatlari xarakteristikasi. Ota - ona - bola munosabatlarining tarixiy davrlari. Onalik va otalik psixologiyasi. Bola shaxsini shakllanishida ota va onaning roli. Ota-onalik ustanovkalari va tarbiya shakllari.

Scanned with CamScanner Сканировано с Cam

Ota - onalarning bola bilan o'zaro munosabat va muloqot stillari. Protektsiya yoki farzandlarini tarbiyalash muammolari. Ota-onalik xulq-atvoriga ko'ra oilada bola tarbiyasining uslublari. Giperproteksiya.

**11-mavzu. Aka-ukalik va opa-singillik munosabatlari psixologiyasi**

Sibling maqomining bola va kattalar munosabatiga ta'siri. Bola shaxsining shakllanishi va rivojlanishi uning oilasidagi aka-ukalar va opa-singillarning o'rni.

**12-mavzu. O'zbekistonda oila siyosatining shakllanishi**

Davlatning oilani mustahkamlash siyosati va uning asosiy tamoyillari. Oilani kafolatlovchi manbalar. Konstitutsiyaning oilaviy munosabatlar sohasidagi tamoyillari. Oila kodeksi. Oila huquqining asosiy manbai butun keng qamrovli O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi - oila qonunchiligining o'zagi. O'zbekistonda oilalarni o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar.

**13-mavzu. Oilaviy psixologiya va uning tadqiqot metodlari. O'zbek oilasining psixoetnik xususiyatlari. O'zbek mentaliteti: uning ijobiy va salbiy jihatlari**

Oilaviy psixologiyaning zaruriyati. Oilaviy psixologiya va uning tadqiqot ob'ekti va predmeti. O'zbek oilasining o'ziga xos tomonlari. O'zbek oilasi psixologiya ob'ekti sifatida. O'zbek mintaliteti tushunchasi. O'zbek mintalitetining ijobiy va salbiy jihatlari. O'zbek oilasida kim psixologik xizmatga muhtoj? Psixologik xizmat bizga qanday yordam bera oladi? Shaxsni bunyodkor sifatida jamiyat hayotiga tayyorlash. Psixologik korreksiya. Oiladagi shaxslararo munosabatlarda oilaviy psixologiyaning tutgan o'rni. Oilaviy psixologiyaning kuzatish, konkret vaziyatlarni tahlil qilish, so'rov, eksperiment, statistik metodlari.

**14-mavzu. O'zbek oilasi muammolari tasnifi. O'zbek oilasi muammolari. Iqtisodiy, moliyaviy, ma'naviy, axloqiy muammolar.**

Oilaning muammolari: iqtisodiy-moliyaviy; ma'naviy-axloqiy; antropogen; psixologik-ruhiy muammolar; muammolarni diagnostika qilish metodlari. Xotin-qizlarning muammolarga munosabati markerlari: xotirjamlik; qabul qilmaslik; inkor etish; muammolar echimiga tayyor emaslik; muammolar echimini bilmaslik; infantillik; ijtimoiy faollik; muammolardan qo'rqmaslik; davlat strukturalari faoliyatini bilish. Iqtisodiy muammolar: pul etishmovchiligi; qarz; ishsizlik; malakaning yo'qligi; kasb-korning yo'qligi. Moliyaviy muammolar: pulsizlik; qarz. Ma'naviy muammolar: muomala madaniyatining etishmasligi; ma'naviy manqurtlik; ommaviy madaniyat; individualizm; egoizm; xudbinlik;

Scanned with CamScanner Сканировано с Cam

mafkuraviy immunitetning etishmasligi; o'z xalqi tarixini bilmaslik. Axloqiy muammolar: axloqsizlik; bevafolik; inson sha'nini hurmat qilmaslik; bilimsizlik; jaholat; hiyonat.

**15-mavzu. Migratsiya va uning oilada muammolarni keltirib chiqarishi. Migratsiyaning oila psixologiyasiga ta'siri (erkaklar, ayollar, bolalar, kattalar)**

Mehnat migratsiyasi (gastarbayterlar). Mehnat migratsiyasi va uning ijobiy va salbiy tomonlari. Erkaklar psixologiyasidagi o'zgarishlar: uzoq vaqt oiladan yiroqda bo'lganligi sababli o'z oilasidan uzoqlashish; o'z xalqidan va oilasidan norozilikning kuchayishi; destruktiv kayfiyatlar, yangi oila qurilishi, o'z oilasi va farzandlarini tashlab qo'yish, befarqlik, pessimizm, deviantlik. Ayollar psixologiyasidagi o'zgarishlar: hayotdan norozilik, pulsizlik, yolg'izlik, sho'rpeshonalik, kasb-korning yo'qligi, ishsizlik, pessimizm, deviantlik, depressiya, alkogolizm, yomon yo'lga kirishi. Bolalar: hayotda tayanchning yo'qligi, hech kimga ishona olmaslik, depressiya, suitsid, konfliktogenlik, yomon o'qish, betga sapchish, o'g'irlik, giyohvandlik, odam savdosi.

## III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

**Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

1. Oila va nihoh munosabatlari Oila psixologiyasi fanining predmeti sifatida.
2. Mutafakkirlarning oila xususida qarashlari. Oila va oilaviy munosabatlar borasidagi qarashlar.
3. Oila va nikoh institutining rivojlanishi.
4. Jinsiy faqrlar psixologiyasi. Turmushdan qoniqish hosil qilishning asosiy omillari.
5. Oilaning hayotiy sikli.
6. Oila va nikoh. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash. Er-xotin juftligining shakllanishi.
7. Oiladagi ijtimoiy psixologik muhit. Yosh oilalarning ijtimoiy psixologik muammolari.
8. Oilada shaxslararo munosabatlar va muloqot psixologiyasi.
9. Oilaviy nizo va ularning turlari.
10. Oilaviy munosabatlarning buzilishi: oila inqirozi va nikoh ajrimlari.
11. Ota-ona va bola munosabatlari psixologiyasi. Ota-onalik ustanofkalari va tarbiya shakllari.
12. O'zbekistonda oila siyosatining shakllanishi.
13. Oilaviy psixologiya va uning tadqiqot metodlari. O'zbek oilasining psixoetnik xususiyatlari. O'zbek mentaliteti: uning ijobiy va salbiy jihatlari.
14. O'zbek oilasi muammolari tasnifi. O'zbek oilasi muammolari. Iqtisodiy, moliyaviy, ma'naviy, axloqiy muammolar.
15. Migratsiya va uning oilada muammolarni keltirib chiqarishi.

Scanned with CamScanner Сканировано с Cam

| | |
|---|---|
| | **Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**<br>Mustaqil ta'limni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, xulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.<br><br>**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**<br><br>1 Oilaviy sotsializatsiya: bosqichlari, institutlari, ta'sir imkoniyatlari<br>2. Ota-onalik ustanovkalari va tarbiya shakllari.<br>3. Milliy g'oya va oilada shaxs tarbiyasi.<br>4. Oilaga psixologik xizmat ko'satishni tashkil etish.<br>5. Oilaviy munosabatlarning ildizlari va attraksiya.<br>6. O'zaro bog'liqlik munosabatlarining dinamikasi.<br>7. Nikoh modeli va ota-ona oilasi.<br>8. Ijtimoiy va oilaviy munosabatlar.<br>9. Zamonaviy o'zbek oilalari.<br>10. Zamonaviy o'zbek oilalari imiji.<br>11. O'zbekistonda yosh oilalarning qo'llab-quvvatlanishi.<br>12.Yosh oiladagi o'zaro munosabatlarning o'ziga xosligi<br>13.Oilaviy munosabatlarning buzilishi: ajrim motivlari.<br>14.Inqirozli oilaga psixologik ko'mak berish yo'llari.<br>15.Ota-ona - bola munosabatlari tizimi.<br>16.Oilaning reproduktiv vazifasi va er-xotin reproduktiv xulqi.<br>17.Perinatal psixologiya.<br>18.Otalik va onalik psixologiyasining o'ziga xos jihatlari.<br>19.Ota-onalik xulqi va bola tarbiyasi.<br>20.Bola tomonidan ota-onalikning idrok etilishi.<br>21.Aka-ukalik va opa-singillik munosabatlari psixologiyasi.<br>22.Sibling maqomining oilaviy munosabatlarga o'zaro ta'siri.<br>23.Oilaparvarlik fazilatlari.<br>24.O'zbekistonda maqsadga yo'naltirilgan oila siyosati.<br>25. XXI asr oilasi konsepsiyasining asosiy mazmuni. |
| 3. | VII. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)<br>**Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:**<br>Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakalariga quyidagicha talablar qo'yiladi. Talaba: - oila va nikoh tushunchasi; nikohga etuklik jihatlari; oilaviy hayotga tayyorlash muammosi; zamonaviy oilaning o'ziga xosligi; oilaviy munosabatlar psixologiyasi; yosh oilalarning ijtimoiy va psixologik muammolari; er - xotin munosabatlari rivojlanish dinamikasi; oilaviy nizolar va ulaming turlari; |

Scanned with CamScanner Сканировано с Cam

| | |
|---|---|
| | oilaviy munosabatlaming buzilishi: nikoh ajrimlari; ota-ona - bola munosabatlari psixologiyasi to'g'risida bilimga; - oilaning ijtimoiy mohiyatini; mutafakkirlarining oila haqidagi qarashlarini; oila psixologiyasining tadqiqot metodlarini; oilaning vazifalari va ularning o'zaro bog'liqligini; er-xotin munosabatlarini muvofiqlashtirishga oid qonuniyatlarni; yosh oilalarning ijtimoiy va psixologik muammolarini; ota-ona-bola munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlarini; oilaviy munosabatlarni o'rganishga oid metodikalarni; oilaviy konsultatsiyaga doir qonunuiyatlarni ko'nikma; - oilaning asosiy metodlaridan foydalanish; oilaviy nizolarni tahlil qilish; oilaga yordam ko'rsatishga qaratilgan psixologik tavsiyalarni ishlab chiqish; oilaviy nizolarni hal qilishning asosiy variantlarini; ota-onalik ustanovkalari va tarbiya shakllarini; yosh oilada yuz beradigan psixologik o'zgarishlarni tadqiq qilish yuzasidan malakasiga ega bo 'lishi kerak. |
| | **VIII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo'lib ishlash va hioya qilish uchun loyihalar. |
| | **IX. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur. |
| | **X. Asosiy adabiyotlar:**<br>1. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. Darslik-T:Fan va texnologiya. 2008.152b.<br>2. Shoumarov G.B. tahriri ostida. Oila psixologiyasi.T.: Sharq, 2010. -272 b. 3.<br>3.Файзиева М., А. Оилавий муносабатлар психологияси. - Т.Ш арк 2007.<br><br>**XI. Qo'shimcha adabiyotlar**<br>1. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.<br>2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. "O'zbekiston" 2016. 7.Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. "Uzbekiston" 2017. |

Scanned with CamScanner Сканировано с Cam

| | |
|---|---|
| | 3.O’zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017— 2021 yillarda O’zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha xarakat strategiyasi. 7 yanvar 2017 yil.<br>4.Ю.Андреева Т. В. Семейная психология: Учеб. пособие. - СПб.: Речь, 2004. - 244 с.<br>5.Карабанова О.А. Психология семейных отношений и основы семейного консультирования. Учебное пособые. - М.: Гайдарики, 2005. - 320 с.<br>6.Шоумаров Г.Б. Муҳаббат ва оила. - Т.: Ибн Сино, 1994. - 120 b.<br>7.М.Сатир В.М. Как строит себя и свою семью. М.: Педагогика - Пресс. 1992.-191 с.<br>8.Психология семейных отношений: конспект лекций / сост. С.А.Векилова. - М.: АСТ; - СПБ: Сова, 2005. - 127 с.<br>9.Социология семьи: Учебник, под. ред. проф. А.И.Антонова- 2-е изд.,<br>**Axborot manbalari**<br>1.http://www.edu.uz<br>2.http://www.gov.uz<br>3.www.cspu.uz<br>4.www.natlib.uz<br>5.https://unilibrary.uz/ |
| 7. | **Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2024 yil “29” 08 dagi qarori bilan tasdiqlangan** |
| 8. | **Fan/modul uchun mas’ullar:**<br>**S.R. Mirzayeva** – CHDPU “Psixologiya” kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori<br>**D.U. Rahmanova** - CHDPU, “Psixologiya” kafedrasi o’qituvchisi |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>**Sh.R. Samarova** - CHDPU, “Psixologiya” kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari nomzodi<br>**N.Sh. Umarova** - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Amaliy psixologiya”kafedrasi mudiri. psixologiya fanlari doktori, professori |

Scanned with CamScanner Сканировано с Cam

Scanned with CamScanner
Сканировано с Cam